



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
I-QISM



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
I-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO'LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O'RNI.....	12
Urakova Maxsad Xakimovna	
QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	18
Yusupova Jamila Karamatdinovna	
COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS.....	21
Kholdorov Sardor Umarovich	
O'ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	28
Yusupov Komaliddin Baxtiyor o'g'li	
O'ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN ICHKI TURISTIK MAHSULOTLAR TAHLILI.....	33
Zoxidov Firuz Faxritdinovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА.....	38
Эргашбаева Нилуфар Мухаммадсайфуллаевна	
MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI O'ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	42
Muzaffarov Akmal Axmadovich	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЧАТ-БОТОВ В СИСТЕМЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ	49
Ирматова Азиза Бахрамовна	
OROL BO'YI MINTAQASIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI (QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	56
Akramova Feruza	
RECENT MEDICAL TOURISM RESEARCH IN THE WEB OF SCIENCE CORE COLLECTION	68
Hao Xiaohui	
HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA'MINLASHDA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN O'ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI	76
Omonov Usmonqul Raxmonqul o'g'li	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISHNING ZAMONAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI	83
Inobatov Abror Boshlarovich	
КОММУНАЛЬНАЯ ИНФРАСТРУКТУРА И МЛАДЕНЧЕСКАЯ СМЕРТНОСТЬ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПО РЕГИОНАМ УЗБЕКИСТАНА ЗА 2012–2024 ГОДЫ.....	92
Мамбетсапаев Курбанияз Айниязович	
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ	97
Ташмухамедова Карима Саматовна	
СУТЬ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	104
Тарават Абдул Салам	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR MANBALARI RIVOJLANISHINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI.....	112
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich	



BARQAROR SHAHARSOZLIKNI TA'MINLASHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING EKOLOGIK VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	117
Permatov Ilxomjon Juraboyevich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR SHAHARSOZLIKNI HUQUQIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH	121
Inoyatova Gulnoz Kadamovna	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK OMILLARNING BINOLAR YEMIRILISHIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH VA ULARNI KAMAYTIRISH USULLARI (TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA).....	125
Turabova Shodiya Anvarjon qizi	
MHXSDA TUSHUM VA MOLIVAVIY INSTRUMENTLAR BO'YICHA PUL MABLAG'LARI OQIMINI HISOBGA OLISH	132
Eshonqulov Akmal Qudratovich	
BOJXONA IMTIYOZLARINING DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	138
Latipov Jahongir Shavkatovich	
O'ZBEKISTONDA XUSUSIY TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TENDENSIYALARI	144
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li	
EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION USULLARNING SAMARADORLIGI.....	150
Usmanova Gulida Valiyevna	
BUXORO VILOYATIDAGI KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI TARMOQLARARO IQTISODIY SAMADORLIGI EKONOMETRIK TAHLILI	156
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KO'CHMAS MULK BOZORIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	163
Sadikova Dildora Abdulla qizi	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH EKOTIZIMINING FUNKSIONAL BOG'LIQLIGI.....	167
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich	
СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫМИ ФИНАНСОВЫМИ ОПЕРАЦИЯМИ	172
Исмоилова Жасмина Ильхом кизи	
SANOAT KLASSTERLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INNOVATSION FAOLIYATGA TA'SIRI	178
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich	
XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI	183
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna	
BIOLOGIK RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARI.....	188
Babadjanov Akmal Shuxratovich	
ZAMONAVIY JAMIYATDA AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISH MEXANIZMLARI.....	193
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li	
O'ZBEKISTON KONTEKSTI: IQLIM O'ZGARISHI, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA MOSLASHTIRISH SIYOSATLARI	198
Haydarov Ibrohimxon Abbosxon o'g'li	
TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI VA BOJXONA NAZORATINI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	202
Kilichov Nazar Bafoevich	

TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI VA BOJXONA NAZORATINI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI



Kilichov Nazar Bafoyevich
Bojxona instituti Bojxona nazorati kafedrası katta o'qituvchisi
ORCID: 0009-0003-6447-0248

Annotatsiya. Mazkur maqolada global iqtisodiyot sharoitida xalqaro tovar yetkazib berish zanjirlarida bojxona nazoratini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Jahon va mahalliy olimlarning "tovar yetkazib berish zanjiri" hamda "bojxona nazorati" tushunchalariga yondashuvlari qiyosiy tahlil qilinib, mavjud ilmiy bo'shliqlar aniqlangan. Tadqiqotda tizimli, integratsiyalashgan, raqamlashtirish va xavflarni boshqarish usullaridan foydalanilgan. Tahlillar asosida davlat tartibga solishi, xavflar boshqaruvi va raqamli texnologiyalar integratsiyasini qamrab oluvchi yangi mualliflik ta'rifi taklif etilgan. Maqolaning amaliy ahamiyati O'zbekistonda bojxona ma'muriyatchiligini raqamlashtirish va ta'minot zanjirlari xavfsizligini oshirish modellarini ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lishidan iborat.

Kalit so'zlar: tovar yetkazib berish zanjiri, bojxona nazorati, integratsiya, xavflarni boshqarish tizimi, raqamlashtirish, elektron deklaratsiyalash, SAFE dasturi.

Аннотация. В данной статье исследованы теоретико-методологические основы совершенствования таможенного контроля в международных цепочках поставок товаров в условиях глобальной экономики. Проведен сравнительный анализ подходов зарубежных и отечественных ученых к понятиям «цепочка поставок товаров» и «таможенный контроль», а также выявлены существующие научные пробелы. В исследовании использованы системный, интеграционный, цифровой и риск-ориентированный подходы. На основе проведенного анализа предложено авторское определение, охватывающее государственное регулирование, управление рисками и интеграцию цифровых технологий. Практическая значимость статьи заключается в формировании теоретической основы для разработки моделей цифровизации таможенного администрирования и повышения безопасности цепочек поставок в Узбекистане.

Ключевые слова: цепочка поставок товаров, таможенный контроль, интеграция, система управления рисками, цифровизация, электронное декларирование, программа SAFE.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations for improving customs control within international supply chains in the context of the global economy. A comparative analysis of the approaches of international and domestic scholars to the concepts of "supply chain" and "customs control" was conducted, and existing research gaps were identified. The study employs systemic, integrated, digitalization, and risk management approaches. Based on the analysis, a new authorial definition is proposed that encompasses government regulation, risk management, and the integration of digital technologies. The practical significance of the article lies in providing a theoretical basis for developing models of customs administration digitalization and enhancing supply chain security in Uzbekistan.

Keywords: supply chain, customs control, integration, risk management system, digitalization, electronic declaration, SAFE Framework.



KIRISH

Zamonaviy global iqtisodiyotda tovar yetkazib berish zanjirlari xalqaro savdoning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Jahon Savdo Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda jahon tovar savdosi hajmi 25 trln dollardan oshdi, ammo chegara rasmiylashtirish jarayonlarining murakkabligi savdo xarajatlarining 14–15 foizini tashkil etmoqda [1]. Bu holat tovar yetkazib berish zanjirlari boshqaruvi va bojxona nazorati o'rtasidagi integratsiyaning zarurligini ko'rsatadi.

Xalqaro savdo oqimlarining jadallashishi sharoitida an'anaviy nazorat mexanizmlari yetarli samaradorlikni ta'minlay olmayapti. Shu bois, xavfsizlik va savdoni osonlashtirish tamoyillari muvozanatini saqlagan holda, ta'minot zanjirlarini davlat tartibga solish tizimi bilan uyg'unlashtirish dolzarb vazifadir. Ushbu tadqiqotning maqsadi tovar yetkazib berish zanjirida bojxona nazoratini tashkil etishning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish hamda mavjud ilmiy yondashuvlardagi bo'shliqlarni to'ldiruvchi tizimli yondashuvlarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

“Tovar yetkazib berish zanjiri” tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Martin Christopher “tovar yetkazib berish zanjiri”ni “xom ashyo yetkazib berishdan tortib, tayyor mahsulotni yakuniy iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan barcha faoliyatlar va jarayonlar tizimi” sifatida ta'riflaydi [2].

M. Christopher “tovar yetkazib berish zanjiri” boshqaruvining asosiy maqsadi sifatida “mijoz qimmatligini oshirish va zanjir ishtirokchilari uchun raqobatbardosh ustunlik yaratish”ni belgilaydi [3].

Sunil Chopra va Peter Meindl esa “tovar yetkazib berish zanjiri”ni “tovar va xizmatlarni xom ashyo bosqichidan yakuniy iste'molchigacha harakatlantirish va saqlash jarayonlarini boshqarish” deb ta'riflaydilar. Ularning ta'kidlashicha, “tovar yetkazib berish zanjiri” boshqaruvi uchta darajadan iborat: strategik, taktik va operatsion [4].

O'zbekiston olimlari ham “tovar yetkazib berish zanjiri” boshqaruvi masalalariga e'tibor qaratganlar. F. A. Karimov “tovar yetkazib berish zanjiri”ni “tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining xalqaro bozorda raqobatbardoshligini ta'minlovchi integratsiyalashgan tizim” sifatida ta'riflaydi [5].

Bojxona nazorati davlatning TIFni tartibga solishning asosiy instrumenti hisoblanadi. A. R. Abdullaev bojxona nazoratini “davlat bojxona siyosatini amalga oshirishning huquqiy va tashkiliy mexanizmlari tizimi” sifatida ta'riflaydi. Abdullaev ta'kidlaydiki, bojxona nazoratining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat [6]:

- davlat chegarasidan o'tayotgan tovarlar va transport vositalarini nazorat qilish;
- bojxona to'lovlarini undirish;
- kontrabanda va bojxona qonunchiligining buzilishiga qarshi kurashish;
- tashqi savdo siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish.

B. K. Rahimov bojxona nazoratini raqamlashtirish masalalarini o'rganadi. Uning ta'kidlashicha, “zamonaviy bojxona nazorati axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz samarali amalga oshirilmaydi” [7].

Xorijiy olimlar ham bojxona nazoratini chuqur o'rganganlar. Alan Grainger savdoni osonlashtirish nuqtayi nazaridan bojxona nazoratini tahlil qiladi. Uning ta'kidlashicha, “bojxona tartibotlarini soddalashtirish xalqaro savdo xarajatlarini 14–15 foizgacha kamaytirishi mumkin” [8]. Grainger JSTning “Savdoni osonlashtirish bo'yicha kelishuvi”ning ilmiy asosini ishlab chiqqan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

“Tovar yetkazib berish zanjiri” va bojxona nazoratini boshqarishning integratsiyasi. “Tovar yetkazib berish zanjiri” va bojxona nazoratini boshqarishning integratsiyasi nisbatan yangi ilmiy yo'nalish hisoblanadi. An'anaviy yondashuvda “tovar yetkazib berish zanjiri” boshqaruvi va bojxona nazorati alohida-alohida o'rganilgan.

JBT tomonidan ishlab chiqilgan “Tovar yetkazib berish zanjiri xavfsizligi va osonligi standartlari” global miqyosda bojxona nazoratini logistika jarayonlari bilan integratsiyalashtirish zarurligini ko'rsatadi. “SAFE Framework” dasturi ham quyidagi asosiy tamoyillarni belgilaydi [9]:

- “tovar yetkazib berish zanjiri” ishtirokchilari o'rtasida axborot almashinuvini yaxshilash;
- xavflarni boshqarish tizimlarini integratsiyalashtirish;
- elektron ma'lumot almashishni joriy etish;
- bojxona organlari va biznes o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash.

“Tovar yetkazib berish zanjiri” va bojxona nazorati tizimini quyidagi elementlardan tashkil topgan deb qarash mumkin:

- tovar oqimi;



- axborot oqimi;
- moliyaviy oqim;
- bojxona nazorati jarayonlari.

Bu elementlarning barchasi o'zaro bog'liq bo'lib, ularning birining samarasizligi butun tizim samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

Integratsiyalashgan yondashuv "tovar yetkazib berish zanjiri" boshqaruvi va bojxona nazoratini yagona boshqaruv mexanizmi ostida birlashtirishni nazarda tutadi.

Integratsiyalashgan yondashuv quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- axborot tizimlarini integratsiyalashtirish (yagona platforma);
- xavflarni boshqarish tizimlarini birlashtirish;
- bojxona tartibotlarini soddalashtirish;
- "tovar yetkazib berish zanjiri" ishtirokchilari va bojxona organlari o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash.

Raqamlashtirish yondashuvi "tovar yetkazib berish zanjiri" va bojxona nazoratida zamonaviy raqamli texnologiyalarni qo'llashni nazarda tutadi.

Raqamlashtirish yondashuvi elektron deklaratsiyalashtirish tizimlari, avtomatlashtirilgan xavflarni boshqarish tizimi, sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish, blokcheyn texnologiyasi, internet narsalari va elektron plomba texnologiyalari hamda xavflarni boshqarish yondashuvini o'z ichiga oladi.

Xavflarni boshqarish yondashuvi bojxona nazoratini xavflarni aniqlash, baholash va kamaytirish jarayoni sifatida ko'radi.

Xavflarni boshqarish yondashuvi xavflarni identifikatsiya qilish, xavflarni baholash, xavflarni kamaytirish choralarini ishlab chiqish, xavflarni monitoring qilish va nazorat qilish kabi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Mavjud ta'riflarning umumiy tahlili va kamchiliklari. Yuqoridagi ta'riflarni tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

Umumiy jihatlar: barcha ta'riflar "tovar yetkazib berish zanjiri"ni tizim sifatida ko'radi, ko'pchilik ta'riflar tovar oqimini asosiy element sifatida belgilaydi, zamonaviy ta'riflar axborot va moliyaviy oqimlarni ham qamrab oladi.

Kamchiliklar va bo'shliqlar:

- davlat tartibga solish omilining yetarli aks ettirilmaganligi;
- chegara jarayonlarining yetarli darajada yoritilmaganligi;
- xavf darajasi omilining yetishmasligi;
- raqamli transformatsiya omilining yetarli emasligi — zamonaviy "tovar yetkazib berish zanjiri"lar raqamli texnologiyalarga asoslangan, ammo bu ta'riflarda to'liq aks etmagan.

Yuqoridagi tahlil asosida quyidagi mualliflik ta'rifini taklif etamiz:

"Tovar yetkazib berish zanjiri — bu xom ashyo ishlab chiqarishdan tortib, tayyor mahsulotni yakuniy iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan barcha jarayonlarni o'z ichiga olgan, davlat tartibga solish va bojxona nazorati mexanizmlari bilan integratsiyalashgan, xavflarni boshqarishga asoslangan, raqamli texnologiyalar yordamida boshqariladigan tashkilotlararo strategik hamkorlik tizimi."

Bu ta'rif quyidagi yangi elementlarni o'z ichiga oladi:

Davlat tartibga solish va bojxona nazorati integratsiyasi: ta'rifda "davlat tartibga solish va bojxona nazorati mexanizmlari bilan integratsiyalashgan" iborasi qo'shildi.

Xavflarni boshqarishga asoslanganlik: ta'rifda "xavflarni boshqarishga asoslangan" iborasi qo'shildi. Bu zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida "tovar yetkazib berish zanjiri" samaradorligini ta'minlashning muhim omilini aks ettiradi.

Raqamli texnologiyalar yordamida boshqarish: ta'rifda "raqamli texnologiyalar yordamida boshqariladigan" iborasi qo'shildi. Bu zamonaviy "tovar yetkazib berish zanjiri"larning raqamli transformatsiyasini hisobga oladi.

Tashkilotlararo strategik hamkorlik: ta'rifda "tashkilotlararo strategik hamkorlik tizimi" iborasi qo'llanildi. Bu "tovar yetkazib berish zanjiri"ni faqat operatsion emas, balki strategik darajadagi hamkorlik sifatida ko'rish imkonini beradi.

Taklif etilgan ta'rif quyidagi afzalliklarga ega:

- komplekslik;
- integratsiyalashganlik;
- zamonaviylik;
- amaliy qo'llanilishi.

"Bojxona nazorati" tushunchasining ilmiy tahlili. JBT ta'rifiga ko'ra, bojxona nazorati — "davlat chegarasidan o'tayotgan tovarlar, transport vositalari va jismoniy shaxslarni tekshirish, bojxona to'lovlarini undirish va bojxona qonunchiligining bajarilishini ta'minlash bo'yicha davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tizimi".



JBT ta'rif nazorat va tekshiruv jihatiga urg'u beradi. Bu ta'rif an'anaviy bojxona nazoratini aks ettiradi, ammo zamonaviy raqamli texnologiyalar va "tovar yetkazib berish zanjiri" bilan integratsiya masalalarini to'liq qamrab olmaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqoridagi ta'riflarni tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

barcha ta'riflar bojxona nazoratini davlat funksiyasi sifatida ko'radi;

ko'pchilik ta'riflar nazorat va tekshiruv jihatiga urg'u beradi;

zamonaviy ta'riflar raqamli texnologiyalarni hisobga oladi.

Kamchiliklar va bo'shliqlar:

"tovar yetkazib berish zanjiri" bilan integratsiyaning yetishmasligi;

boshqaruv jihatining yetarli emasligi;

iqtisodiy jihatning yetishmasligi;

xavflarni boshqarishning yetarli emasligi;

integratsiyalashgan yondashuvning yetishmasligi — bojxona nazoratini TEZ boshqaruvining organik qismi sifatida ko'radigan ta'riflar juda kam.

Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, mavjud ta'riflar bojxona nazoratining alohida jihatlarini qamrab oladi, ammo uni integratsiyalashgan tizim sifatida ko'rib chiqmaydi.

Yuqoridagi barcha ta'riflarning tahlili asosida quyidagi mualliflik ta'rifini taklif etamiz: "Bojxona nazorati — bu davlat chegarasidan o'tayotgan tovarlar, transport vositalari va jismoniy shaxslarni tekshirish, bojxona to'lovlarini undirish, xavflarni boshqarish va bojxona qonunchiligining bajarilishini ta'minlash bo'yicha davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan, tovar yetkazib berish zanjiri boshqaruvi bilan integratsiyalashgan, savdoni osonlashtirish va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan boshqaruv tizimi."

Bu ta'rif quyidagi yangi elementlarni o'z ichiga oladi:

1. Xavflarni boshqarishga asoslanganlik. Ta'rifda "xavflarni boshqarish" iborasi qo'shildi. Bu zamonaviy bojxona nazoratining asosiy tamoyili bo'lib, nafaqat tekshiruv, balki xavflarni oldindan aniqlash va kamaytirishni nazarda tutadi.

2. Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt. Ta'rifda "raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt yordamida avtomatlashtirilgan" iborasi qo'shildi. Bu zamonaviy bojxona nazoratining texnik asosini aks ettiradi.

3. "Tovar yetkazib berish zanjiri" bilan integratsiya. Ta'rifda "tovar yetkazib berish zanjiri boshqaruvi bilan integratsiyalashgan" iborasi qo'shildi. Bu bojxona nazoratini "tovar yetkazib berish zanjiri" boshqaruvining ajralmas qismi sifatida ko'rish imkonini beradi.

4. Savdoni osonlashtirish va iqtisodiy xavfsizlik. Ta'rifda "savdoni osonlashtirish va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan" iborasi qo'shildi. Bu bojxona nazoratining ikkita asosiy maqsadini muvozanatlashtiradi.

Ta'rif O'zbekiston sharoitida bojxona nazoratini takomillashtirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval
Mualliflik ta'rifining mavjud ta'riflardan farqi

Jihat	Mavjud ta'riflar	Mualliflik ta'rif
TEZ bilan integratsiya	Yo'q	Bor
Xavflarni boshqarish	Ba'zida	Asosiy tamoyil
Raqamli texnologiyalar	Ba'zida	AI bilan birga
Savdoni osonlashtirish	Ba'zida	Xavfsizlik bilan muvozanat
Boshqaruv tizimi	Kamdan-kam	Asosiy xususiyat

Taklif etilgan mualliflik ta'rif mavjud ta'riflarning kamchiliklarini bartaraf etadi va bojxona nazoratini zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida to'liqroq aks ettiradi. Bu ta'rif dissertatsiyaning keyingi boblarida "tovar yetkazib berish zanjiri" va bojxona nazoratini integratsiyalashgan boshqaruv modellari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.



Yuqoridagi tahlil asosida quyidagi mualliflik ta'rifini taklif etamiz:

“Tovar yetkazib berish zanjirida bojxona nazorati — bu xom ashyo ishlab chiqarishdan tortib, tayyor mahsulotni yakuniy iste'molchiga yetkazib berishgacha bo'lgan barcha bosqichlarda davlat chegarasidan o'tish jarayonlarini boshqarish, xavflarni identifikatsiya qilish va kamaytirish, bojxona to'lovlarini undirish hamda savdoni osonlashtirish maqsadida tovar yetkazib berish zanjiri ishtirokchilari va bojxona organlari o'rtasidagi axborot almashinuvini raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt yordamida integratsiyalashtirishga qaratilgan boshqaruv tizimi.”

Taklif etilgan ta'rif quyidagi afzalliklarga ega (1-jadval)

2-jadval
Mualliflik ta'rifining mavjud yondashuvlardan farqi

Jihat	An'anaviy yondashuv	Qisman integratsiyalashgan yondashuv	Mualliflik ta'rifi
TEZ va bojxona nazorati munosabati	Mustaqil tizimlar	Qisman bog'liq	Yagona integratsiyalashgan tizim
Bojxona nazoratining qamrovi	Faqat chegara jarayoni	Chegara va qisman logistika	Butun TEZ davomida
Xavflarni boshqarish	Alohida	Qisman	Asosiy tamoyil sifatida
Raqamli texnologiyalar	Hisobga olinmagan	Texnik yechim sifatida	AI bilan integratsiyalashgan
Axborot almashinuvi	Cheklangan	Qisman	To'liq integratsiyalashgan
Boshqaruv tizimi	Yo'q	Qisman	Asosiy xususiyat

Integratsiyalashganlik: Ta'rif “tovar yetkazib berish zanjiri” va bojxona nazoratini yagona tizim sifatida ko'radi, ularni alohida-alohida emas, balki o'zaro bog'liq holda tahlil qilish imkonini beradi.

Komplekslik: Ta'rif bojxona nazoratining barcha jihatlarini qamrab oladi.

Zamonaviylik: Ta'rif raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni hisobga oladi, bu esa zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida muhim ahamiyatga ega.

Amaliy qo'llanilishi: Ta'rif O'zbekiston sharoitida “tovar yetkazib berish zanjiri” va bojxona nazoratini integratsiyalashgan boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy yangilik: Ta'rif ilmiy adabiyotlarda mavjud bo'lmagan yangi tushunchani kiritadi va dissertatsiyaning asosiy ilmiy hissasi hisoblanadi (2-jadvalga qarang).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Taklif etilgan mualliflik ta'rifi ilmiy adabiyotlarda mavjud bo'lmagan yangi tushunchani kiritadi va “tovar yetkazib berish zanjiri” hamda bojxona nazoratini integratsiyalashgan boshqaruv tizimi sifatida ko'rish imkonini beradi. Bu ta'rif dissertatsiyaning asosiy ilmiy hissasi hisoblanadi va keyingi boblarda “tovar yetkazib berish zanjiri” va bojxona nazoratini integratsiyalashgan boshqaruv modellari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

Yagona raqamli makon yaratish: Tovar yetkazib berish zanjiri ishtirokchilari va bojxona organlari o'rtasida ma'lumotlarni real vaqt rejimida almashish imkonini beruvchi integratsiyalashgan platformani to'liq shakllantirish.

Sun'iy intellekt va XBT integratsiyasi: Bojxona xavflarini boshqarish tizimiga sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish texnologiyalarini kengroq joriy etish orqali xavf darajasi past bo'lgan tovarlarni zanjir bosqichlarida tezkor “yashil yo'lak”lardan o'tkazish tizimini kengaytirish.

Uzluksiz nazorat konsepsiyasi: Bojxona nazoratini faqatgina chegara o'tkazish punktlarida emas, balki “xom ashyodan iste'molchigacha” bo'lgan zanjirning barcha nuqtalarida uzluksiz boshqaruv tizimiga aylantirish.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. World Trade Organization (WTO). *World Trade Statistical Review 2023*. Geneva: WTO Publications, 2023. P. 15–18. URL: https://www.wto.org/english/tratop_e/stats_e.htm
2. Christopher M. *Logistics & Supply Chain Management*. 5th ed. Harlow: Pearson Education, 2016. 320 p.
3. Chopra S., Meindl P. *Supply Chain Management: Strategy, Planning, and Operation*. 7th ed. Boston: Pearson, 2019. 576 p.
4. Chopra S., Meindl P. *Supply Chain Management: Strategy, Planning, and Operation*. 7th ed. Boston: Pearson, 2019. 576 p.
5. Karimov F.A. *Tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish: nazariya va amaliyot: darslik*. Toshkent: TDIU, 2019. 456 b.
6. Abdullayev A.R. *Bojxona ma'muriyatchiligining huquqiy asoslari: monografiya*. Toshkent: Bojxona akademiyasi, 2020. 287 b. URL: <https://customsacademy.uz/books/abdullaev-2020>
7. Rahimov B.K. *Bojxona nazoratida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari: monografiya*. Toshkent: Bojxona akademiyasi, 2021. 312 b. URL: <https://customsacademy.uz/books/rahimov-2021>
8. Grainger A. *Trade Facilitation: A Conceptual Review and Ways Forward // Journal of International Trade Law and Policy*. 2011. Vol. 10. No. 1. P. 39–62. URL: <https://doi.org/10.1108/14770021111110778>
9. World Customs Organization. *SAFE Framework of Standards to Secure and Facilitate Global Trade*. Brussels: WCO, 2022. P. 12–15.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>